

AXSIKENT ARXEOLOGIK YODGORLIGINING
O'RGANILISH TARIXI

Ra'no Ergasheva Muzaffarbek qizi
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatida joylashgan qimmatli tarixga ega yodgorliklardan biri bo'lgan – Axsikentning o'rganilish tarixi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Axsikent, Sirdaryo, bulat, tigel, mudofaa, burj, Qoraxoniylar davri, sinch, Damashq qilichlari, hammom.

Abstract: This article analyzes the study history of Aksikent, one of the valuable historical monuments located in Namangan region.

Keywords: Ahsikent, Syrdarya, bulat, crucible, defense, zodiac sign, Karakhanid period, strict, Damascus swords, bathroom.

Аннотация: В данной статье анализируется история изучения Аксикента, одного из ценных исторических памятников, расположенных в Наманганской области.

Ключевые слова: Ахсикент, Сырдаря, мне жаль, тигель, защита, знак зодиака, эпоха Караханидов, строгий, Дамасские мечи, ванная комната.

Yerimning tuprog'i Alloh yaratgan joylarning hech biriga teng kelmaydi. Albatta, Axsikent men uchun qadrlı ona kabidir, garchi dunyoga keltirmagan bo'lsada.

Yoqut al-Xamaviy

KIRISH

Namangan viloyati boshqa viloyatlarga nisbatan arxeologik yodgorliklarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bular orasida Axsi va Axsikent, Mug'tepa, Buonamozor, Kayvonot, Uchtepa kabilari katta ilmiy qimmatga ega bo'lib, uzoq o'tmishdan xabar berib turadi.

Namangan viloyatining tarixiy yodgorliklarini ilmiy asosda o'rganish Rossiya Turkistonni bosib olganidan so'ng, XIX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan. Viloyat hududidagi dastlabki arxeologik qidiruv ishlari Sirdaryoning o'ng sohilida olib borilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda Farg'ona – Axsikent shahrining iqtisodiy salohiyati va uning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni aniqlangan.

TADQIQOT

Axsikent – Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan qadimiy shahar xarobasi. Mil.avv. III-II asrlarda vujudga kelib, IX-X asrlarda ham Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. Lekin, xitoy tarixchisi Du Xuanning ma'lumotiga ko'ra, VII asrda poytaxt Parkona

shahri nomi bilan tilga olingan. Ammo, xitoy manbalarida ham bu joy hozirgi qaysi shaharga to'g'ri kelishi aniqlanmagan. Oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng ko'plab yangiliklar muallifi arxeolog olim Abdulxamid Anorboyev Axsikentda topilgan shahar qoldiqlariga asoslanib, qadimgi Farg'ona davlatining poytaxti aynan shu joyga to'g'ri keladi, degan fikrni o'rtaga qo'yimoqda [1. B – 137].

Axsikent Qashqardan g'arbiy tomonda Buyuk Ipak yo'li karvonlari to'xtash joyi bo'lgan. Shaharda kaolin bilan qoplangan eritish pechlarida tayyorlanadigan Damashq po'latlari Damashq va Bog'dodda juda ham mashxur bo'lgan. Bu yerda zarb qilingan mis tangalar butun Somoniylar davlati hududida keng tarqalgan. Shahar savdo va ishlab chiqarish markazi sifatida nom qoldirgan. Oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng, avval kushonlar, keyin esa turkiy qabilalar tomonidan bosib olingan. Shaharning eng qadimgi tarixi haqidagi ma'lumotlarning aksariyati xitoy manbalaridan va arxeologik qazilmalar orqali yetib kelgan.

Axsikentning arxeologik jihatdan o'rganilishi 1885-yildan boshlangan. Dastlab, Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos N. I. Veselovskiy qidiruv ishlarini olib boradi. 1913-yilda I. A. Kastane tomonidan navbatdagi qazishma va tadqiq ishlari o'tkazildi. Qolaversa, jarning yuqori qismidagi kovaklar ichiga kaptarlar uya solganligini ham olim aytib o'tgan. Qazish chog'ida Axsikentdan xammom, madrasa, karvonsaroy qoldiqlari ham aniqlangan. Xisobotlarining birida aytilishicha, qidiruv davomidagi fotosuratlar va xulosalar tayyor bo'lgan. Biroq mablag' yetishmaganligi oqibatida ularni chop etishning imkoni bo'lmagan. 1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishi davrida professor M. E. Masson bu yerda arxeologik razvedka ishlari bilan shug'ullandi [2. B – 8]. 1948-yilda A. Bernshtam ham qidiruv ishlarini amalga oshirgan. 1957-1959-yillarda Namangan o'lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o'rganilgan [3. B – 819].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida shahar ark, shahriston va rabotdan iborat bo'lgan va har bir qismi alohida devorlar bilan o'ralgan.

Shahriston – 35 ga. maydonni egallagan. Hozirgi kunda uning 25 ga. hududi saqlanib qolgan. Shahriston ichki va tashqi qismlardan iborat bo'lgan. Ichki qismidan 2 ta minora, tashqi tomondan esa 20 ga yaqin minora qoldiqlari topilgan.

Rabot – 350 ga. dan ziyod bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida hududda boylarning uylari, bog'lar, hunarmandlar mahallasi va hammom topilgan.

Ark qismida hokim saroyi va zindon mavjud bo'lganligi aniqlangan.

Axsikentda 1960-yilning 14-mayidan 20-iyunigacha ish olib borgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini maxsus arxeologlar otryadining ilmiy raxbari professor Ya. G'ulomov bo'lib, a'zolari I. Axrorov, S. Raximovlar edi. Y. Qosimov, A. Anorboyev, Papa Xristo, G'ulom Mirzayev, Qahramon Asqarov, Farxod Maqsudov, Alijon Vohidov va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan esa 1967-1969, 1971-1977, 1980-1990-yillarda va undan keyingi yillarda ham ilmiy izlanishlar

o'tkazilib, muhim ma'lumotlar, ashyoviy dalillar to'planganligi tarixdan ma'lum. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Eski Axxi yodgorligi XVII asrdagi zilzila oqibatida vayronaga aylangan. "Boburnoma" asarida ko'rsatib o'tilgan Axxi qal'asi hozirgi kundagi Eski Axxi arxeologik yodgorligi ekanligi aniqlangan [2. B – 12]. Axxikent shahrining o'rta asr rabot qismi XV asrdan e'tiboran undan 2 km. sharqda joylashgan Shaxand qishlog'iga ko'chganligi, bu yerda XVI asr va XVII asrning birinchi choragiga oid sopol buyumlar mavjudligi aniqlangan.

1967-yili rassom I. A. Smirnov Axxikent xarobalaridan yig'ib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan [3. B – 820]. Axxikent yodgorligi o'zbek xalqi madaniyati tarixida muhim o'rin tutganligi uchun 1950-yillardan keyin davlat muhofazasiga olingan.

Professor N. I. Veselovskiy Eski Axxining 5 ta hududini tanlab olib, hududlarning 10 ta punktida qazishma ishlarini olib borgan. Qidiruv natijasiga ko'ra, bu yerda tartibsiz xolda yotgan odam bosh kosasi, ularning ustida esa teskari xolatda to'nkarilgan sopol buyumlari topilgan [2. B – 89]. Chanoq suyaklarining yuqori qismi tepaga qaragan ko'rinishda topilishi ham faqatgina tabiiy ofat, ya'ni zilzila yoki biron tabiat hodisasi yuzasidan bo'lganligi ham mumkin.

Axxikentdan bir nechta xonalar topib o'rganilgan. Ulardagi 1-janubiy xona, 2-janubi-g'arbiy xona, 3-sharqiy xonaning xolatlari yaxshi saqlangan, lekin, 4-xonaning janubiy qismi va undan keyingi xonalar 1950-1960-yillarda yodgorlikdan tuproq olinishi davrida kuchli tarzda buzib yuborilgan [4. B – 19].

"Yangi Axxi" yoki "Temuriylar davri Axxikenti" haqidagi fikrlar ilk bor XX asrning 60-yillarida Namangan o'lkashunoslik muzeyi xodimi Yu. G. Chulanov tomonidan "Советская археология" jurnalidagi "Городище Ахсыкет" maqolasida bildirilgan. Olim yodgorlikda o'tkazilgan qazishmalardagi topilmalarni XIII asr boshlarigacha bo'lgan davrgagina taalluqli ekanligini, XV-XVII asrlarga oid ashyolar bu yerdan topilmaganligini isbotlamoqchi bo'ladi.

XIX asr oxiri – XX sr boshlarida russhunos va arxeolog olimlaridan, akademiklar A. Middendorf va V.V. Bartold, professorlardan N. I. Veselovskiy hamda A. N. Bernshtam, tadqiqotchi-sharqshunoslar I. A. Kastane, V. Nalivkin, N. P. Ostroumov, N. Pavlov va boshqalar Axxi, Axxiket yoki Axxikent deganda faqatgina bitta makon – Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Eski Axxi yodgorligini nazarda tutganlar.

Yu. G. Chulanov tadqiqot natijalarida Eski Axxini Axxikent I, yangi Axxini Axxikent II, deb nomlagan. Axxikent I dan farqli ravishda Axxikent II da xom g'ishtdan qurilgan mustaxkam masofada devorlar yo'qligi, shahar qismlarga ajratilmaganligi, shu bilan birga shaharning ilk loyiha shaklini tiklashning iloji bo'lmaganligini aytib o'tgan [5. C – 197]. Shu davrdan keyingi deyarli barcha tarixiy asrlarda Yu. G. Chulanovning fikriga tayangan holda, Axxikentni mo'g'ullar tomonidan vayron

etilganligi va uning oqibatida Temuriylar yangi Axsi shaxriga asos solishga majbur bo'lganligi haqidagi fikrlar takrorlanavergan.

Axsikentga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish maqsadida, 2001-yilning 30-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Madaniy meros obyektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, 2009-yilda "Arxeologiya merosi obyektlarini muxofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar, 2017-yilning 16-oktyabrida Vazirlar Maxkamasining "Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida "Axsikent" arxeologiya merosi obyektini muxofaza qilish va tadqiq etish, yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [6. B – 10].

2019-yil sentabr oyida A. Anorboyev rahbarligida "Axsikent kompleks ekspeditsiyasi" arxeologlarining u yerda olib borayotgan arxeologik qazuv tadqiqotlari davomida Qoraxoniylar davriga oid qatlamlardan devoriy surat qoldiqlari va ganchdan tayyorlangan o'yima naqsh qismlari topildi.¹ 2019-yil VIII, XVIII, XI, XIX va XXIV obyektlarda tadqiqotlar olib borilib, ular ochiq osmon ostidagi muzeyga tayyorlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, dunyoning qayerida Axsikent haqida gap ketsa, aholining ko'z oldida sopol quvurlar va devorlar gavdalanadi. Ammo, Birinchi galda bu yerda yetishib chiqqan olimlar, lashkarboshilar, podshohlar ham e'tiborga olinishi kerak. Sababi, har qanday memoriy inshootlar, hunarmandchilik ashyolari, sopol quvurlar ham devoriy suratlar ham qaysidir hokim, podshoh buyrug'i bilan qaysidir olim tomonidan bunyod qilinadi, albatta. Shaharning taraqqiy etib, jahoniy ahamiyat kasb etishida ularning fidokorona mehnati bo'lganligini unutilmaslik kerak. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, o'z davrida olimlar tomonidan yozilgan tarixiy-ilmiiy asarlar birlamchi manba hisoblanadi. Arxeologik topilmalar esa, o'sha manbadagi ma'lumotlarni to'ldirish, isbotlash uchun xizmat qiladi.

O'tkazilgan qidiruv ishlarining oxirida har bir olim Axsikentning poytaxt bo'lganligini ma'qullaydi. Buni rad etadigan oqibatlar ko'zga tashlanmagan. Bu yerning tuzilishi va qurilishi ham juda mukammal tarzda ishlangan. Bo'lib o'tgan zilzila faqat qal'aning ichki qismida juda qattiq tarzda bo'lgan, yon-atroflarida xavfli holatni vujudga keltirmagan. Markazda esa bir kunda 70 martagacha silkinish holati kuzatilgan. Sopol quvurlar, ma'lum xonalar va yana bir qancha joylar mustahkam tarzda ishlanganligi sababli buzilmagan. Saqlanib qolingan joylar hozirda arxeolog olim A. Anorboyev boshchiligidagi guruh tomonidan mukammal tarzda o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ham bu yodgorlikka juda katta e'tibor bermoqda. Axsikentni "Ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirish uchun hamma arxeologlar birdek harakat qilmoqda.

¹ Batafsil qarang: <https://cyberleninka.ru/article/n/farg-ona-vodiysida-joylashgan-axsikent-va-mingtepa-yodgorliklarining-arxeologik-o-rganilishi/pdf> (foydalanilgan sana: 29.07.2024)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar. Farg'ona 2013. B – 288.
2. Qozoqov T. Aysi – Farg'ona shaharlarining onasi. “Navro'z”. T.:2018. B – 80.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T – 1. “Davlat ilmiy nashriyoti”. T.:2000. B – 879.
4. Anorboyev A.; Kubayev S.; Nasriddinov Sh.; Omonov Sh.; Murodaliyev P.; Pardoyev M. O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar 20018-2019-yillar //2018-2019-yillarda Axsikent yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar. Samarqand 2020. -№12. B – 147.
5. Chulanov Yu. G. Городище Ахсыкет //Советская археология. -1963. -№3.
6. Qozoqov T.; Voxidov A.; Ro'zinov B. Buyuklarga beshik bo'lgan Axsikent yoxud Farg'ona allomalari. “Navro'z”. T.:2020.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/farg-ona-vodiysida-joylashgan-axsikent-va-mingtepa-yodgorliklarining-arxeologik-o-rganilishi/pdf>
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Axsikent>
9. <https://meros.uz/object/axsikent-yodgorligi>